

**UDK. 619:636.2:616.9:591.85.**

## **QASHQADARYO VILOYATINING CHO'L HUDUDIDA JOYLASHGAN QIZIL ZOTLI QORAMOLLARDA TRIXOFITIYA KASALLIGINI KELIB CHIQISH SABABLARI**

*Usmonova X.J.*

*Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqola Qashqadaryo viloyatining cho'l xududida joylashgan qizil zotli qoramollarda trixofitiya kasalligini kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish uchun tavsiyalar berishga bag'ishlangan bo'lsa, hayvonlarning 5 foizida zamburug', 3 foizida tellerioz va ularning tashuvchisi pirop plazmoz tarqatishi aniqlangan. Aniqlanishicha, Kasbi tumanidagi "Yurt risqi" MChJ fermer xo'jaligidagi 400 bosh qoramolning 4,5 foizi trixofitiya, buzoqlarda 2,5 foizi pirop plazmoz bilan kasallangan. Undan tashqari qonning biokimyoviy ko'rsatgichlari asosida kasalliklarni erta aniqlash hamda sifatli davolash samarasi ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Qashqadaryo viloyati, cho'l xudud, zamburug', *Tr. verricosum*, ratsion, kasallik, qonning biokimyoviy ko'rsatgichlari, vaktsina va antiseptik vositalar.

**Kirish.** Inson salomatligini o'ylaydigan shifokorlarimiz bemorning biokimyoviy qon parametrlari natijalarini to'liq tahlil qilmasdan davolashni boshlamaydi. Veterinariya shifokorlari orasida ham mavjud bo'lib, ularning ba'zilar muntazam ravishda, biokimyoviy tadqiqotlar uchun qon yig'adilar. Biroq, aksariyat hollarda, bu tadqiqotlarning barchasi, shuningdek, ularning natijalari faqat qog'oz shaklida qoladi. Amaliyotda joriy etilsa, veterinariya mutaxassislari, balki hayvonlar uchun ratsion tarkibini to'g'ri ishlab chiqishda, zootexnika mutaxassislariga ham katta xizmat qilishi mumkin. Fermer xo'jaligi qanchalik yuksak darajada ko'rinmasin chorvachilik iqtisodiyoti tarmoq sifatida ana shu ma'lumotlarga asoslanishi va qurilishi kerak. Hayvonlarni maxsuldorligini oshirishda infeksiyon va invazion kasalliklarni kelib chiqish va ular tufayli yuzaga kelgan har xil kasalliklarni ertachi aniqlash va davolashda qonning biokimyoviy ko'rsatgichlari ishonchli fakt bo'la oladi. Organizmdagi har qanday fiziologik norma, patologik o'zgarishlarni olib kelgan sabablarni biokimyoviy ko'rsatgichlar natijasida hayvon sog'lig'ini saqlab qolish, ulardan yuqori sifatli mahsulotlar olish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlil qilish.** Organizm biosintezini, energiyani, organizmning o'sishini va rivojlanishini, sut, go'sht va boshqa chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlash jarayonlarda ishtirok etadigan barcha oziq moddalar, istisnosiz, oziq moddalar bilan ta'minlanishi kerak. Hayvonlar organizmi biologik zarur miqdorda va nisbatlarda ratsionga ega. Hayvonlarni saqlash sharoitlari va ularni ekspluatatsiya qilish organizmdagi metabolizmning intensivligiga muhim ta'sir ko'rsatadi [1-3]. Chorvachilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining murakkab va juda qimmat tarmog'idir, chunki u odamlar tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadigan dehqon hayvonlariga kundalik parvarish va e'tibor zarurati bilan bog'liq. Kichik poda yoki yirik chorvachilik majmuasidan maksimal mahsulot olish uchun hayvonlarni sifatli ozuqa bilan uzluksiz ta'minlash va ularni to'g'ri oziqlantirish zarur. Ular suvga to'sqinliksiz kirishlari va ularga xizmat ko'rsatish uchun zoogigienik standartlarga javob beradigan binolarda etologik tamoyillarga muvofiq joylashtirilishi kerak. Ularni kundalik parvarishlash, tibbiy va veterinariya yordami bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Hayvonlarni ekspluatatsiya qilish darajasi va texnologik rejimlar tananing biologik imkoniyatlariga mos kelishi, sog'lig'iga putur etkazmasligi va ulardan ishlab chiqarish muddatini qisqartirmasligi kerak. Ushbu shartlardan kamida bittasiga rioya qilmaslik chorvachilikning rentabelligini pasaytiradi [4-6].

**Tadqiqot maqsadi.** Qashqadaryo viloyatining cho'l xududida trixofitiya kasalligi bilan birga boshqa tur kasalliklarni kelib chiqish sabablari va ushbu kasalliklarni erta aniqlash, bartaraf etish va maxsuldorligini oshirishga qaratilgan.

Undan tashqari kasalliklarni kelib chiqishi va bartaraf etishda qondagi biokimyoviy ko'rsatkichlarni ahamiyati.

**Materiallar va tadqiqot usullari.** Tadqiqotlarimiz Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman xududda joylashgan qizil zotli qoramollarda amalga oshirildi. Kasallikni erta aniqlash maqsadida hayvonlar saqlanadigan joylardagi to'rtta burchagidan tuproq va gung namunalari Samarqand viloyati oziq-ovqat xavfsizligi bakteriologiya laboratoriyasida. Qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlari monitoringi Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman Mirishkor qishlog'ida joylashgan "Yurti risqi nasilchilik" MChJ hamda Mug'lon qishlog'i aholi chorvalarda amalga oshirildi. Laboratoriya tadqiqotlari Samarqand shahar laborator diagnostika klinik laborator zamonaviy asbob-uskunalar DKTF biokimyoviy analizator, pipetkali dispenser DPOPts-1-20-200; pipetkali dispenser Biohit (100–1000 mkl), spektrofotometr PV1251C, sentrifuga OPN-8.

**Tadqiqot natijalari.** Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani ochiq dala maydonlardan iborat bo'lib, shamol Turkiston bo'ylab esadi. Turkistonning ochiq cho'l tizmalarining etaklari Mirishkor, Kasbi, Beshkent tuman hududlaridan tashkil topgan. Ushbu voha keng tabiiy ochiq yaylovlar, tabiati boshqa tumanlarga nisbatan iqlimi juda issiq. Bu tabiiy hududiy joylashuvda chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlari kengligi, shu bilan birga qoramollar qon-parazitar va trixofitiya kasalliklarni tarqatuvchi bit, kana va zamburug'larning o'sib rivojlanishi uchun qulay tabiiy biotoplarning mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ushbu xududda qoramollar trixofitiya kasalligi keng tarqalganligi va katta iqtisodiy zarar etkazib kelayotganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud.

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai-kasal hayvonlar. Ular kasal hayvonlar bilan kontaktda yoki zamburug'larni atrof muhitga tarqalishi (molxona, to'shama, jihozlar, tezak, tuproq, va boshqa) natijasida kasallikga moyil hayvonlarni zararlaydilar. Zamburug' sporalari havo orqali o'tishi va tarqalishi mumkin. Infektsiya molboqarlar orqali ham kirishi o'z isbotini topdi.

Hayvonlarda trixofitiyani paydo bo'lishida ma'lum darajada terining shkastlanishi, tiralishi, tilinishi, shuning namlik ta'sirida epiteliyning deskvamasiyasi imkon yaratadi. Qashilaganda, ishqalanganda bu joylarda terining geritimiya ortadi, natijada muhit reaksiyasi o'zgaradi va zamburug' hayot faoliyati uchun yanada qulay bo'ladi. Trixofitiya qo'zg'atuvchisining faol o'tkazuvchisi ektoparazitlar ham hisoblanadi. Bizning tadqiqotlarimiz jarayonida 2015-2017 yillarda aholi qoramollari trixofitiya bilan turli yoshda 18 kunlik buzoqlardan -3,5 yoshgacha bo'lgan qoramollar kasallanishi kuzatildi. 2018 yil davomida kasallik kuz va qish fasllarida kasallik ko'proq uchrashi aniqlandi. 2019 yil bahor va yoz fasllarida tangachasimon shakli aniqlandi. Kasallikni tarqalish tezligi va mavsumiga qarab uning kelib chiqish sabablari o'rganilib unga qarshi chora tadbirlar ishlab chiqildi va keyingi mavsumda kuzatuvlar chuqurlashtirilib 2020-2024 yil mavsumlarda trixofitiya kasalligini tarqalishi va kasallanish darajasi pasayganligini ko'rish mumkun.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Усмонова, Х. (2023). Эффективность Ивермектина и поливитаминного препарата для лечения и профилактики трихофитоза крупного рогатого скота. *in Library*, 1(2), 117-120.
2. Усмонова, Х. (2023). Использование монохлорированного йода для лечения трихофитии у крупного рогатого скота. *in Library*, 1(2), 80-82.
3. Juraevna, U. K. (2023). The Effectiveness of Ivermectin and Multivitamin Preparation for the Treatment and Prevention of Cattle Trichophyton Disease.

4. Juraevna, U. K. (2023). Utilizing Monochlorinated Iodine as a Treatment for Trichophytosis in Cattle.
5. Jo'Rayevna, U. X. (2023). QORAMOLLARDA LTF-130 VAKSINANI DOZALARDA QO'LLASH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 846-850.
6. Усмонова, Х., Избасаров, У., Мамадуллаев, Г., & Рузиев, З. (2022). Современные требования к лечению дерматозов (псориаза, экземы) сложной этиологии, трихофитии у человека, овец и коз. *in Library*, 22(2), 684-687.
7. Усмонова, Х. (2022). Причина и патогенез заболевания Трихофитом крс. *in Library*, 22(2), 144-146.
8. Усмонова, Х. (2022). Способ лечения Трихофита крс препаратами Флуконазола и Бутасола-100. *in Library*, 22(3), 28-30.
9. Усмонова, Х. (2022). Дозированное применение вакцины LTF-130 крс. *in Library*, 22(4), 846-849.
10. Усмонова, Х., & Шопулатова, З. (2021). Изучение эпизоотологии трихофитоза у коров Самаркандская область. *in Library*, 21(3), 34-37.
11. Усмонова, Х. (2021). Экономический ущерб в результате трихофитии в Узбекистане. *in Library*, 21(2), 26-28.
12. Усмонова, Х. (2021). Изучить эпизоотологический статус трихофитии крупного рогатого скота. Разведение в условиях Узбекистана. *in Library*, 21(4), 74-78.
13. Jahongirovna, S. Z., & Juraevna, U. K. (2021). Study of epizootology of trixophytis disease in cows of Samarkand region. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 34-37.
14. Усмонова, Х. (2020). Совершенствование методов профилактики и лечения трихофита КРС. *in Library*, 20(3), 226-229.
15. Усмонова, Х., Сайдалиев, Д., & Рузикулов, Р. (2017). Значение, задачи и роль ветеринарно-санитарной науки в производстве. *in Library*, 17(3), 24-25.
16. Usmonova, H. J. Economic Damage as a Result of Trichophy in Uzbekistan. *JournalNX*, 7(07), 26-28.
17. Усмонова, Х. (2024). Методы профилактики и Лечение трихофитии по причине (анализ литературы). *in Library*, 2(2), 37-41.
18. Juraevna, U. K. (2024). METHODS OF PREVENTION AND TREATMENT OF TRICHOPHYTE IN CAUSE (literature analysis). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 2(4), 37-41.
19. Izbasarov, U. K., Mamadullaev, G. K., Ruziev, Z. E., & Usmonova, K. Z. Modern Requirements for the Treatment of Dermatoses (Psoriasis, Eczema) of Complex Etiology, Trichophytosis in Humans, Sheep and Goats.
20. Мамадуллаев, Г. Х., Джуракулов, О. К., & Шапулатова, З. Ж. (2020). СУПРАМОЛЕКУЛЯРНЫЙ ПРОТИВОТУБЕРКУЛЕЗНЫЙ КОМПЛЕКС. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 120-126).
21. Мамадуллаев, Г. Х., Рўзимуродов, М. А., Саидов, А. А., Файзиев, У. М., & Жўракулов, О. К. Ветеринария илмий тадқиқот институти. *ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ*, 50.
22. Шомуротов, Ш. А., Ахмедов, О. Р., Мамадуллаев, Г. Х., & Тураев, А. С. ПОБОЧНЫЕ ДЕЙСТВИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ Новостная информация.
23. Шомуротов, Ш. А., Ахмедов, О. Р., Мамадуллаев, Г. Х., & Тураев, А. С. ИССЛЕДОВАНИЕ СПЕЦИФИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ПРОТИВОТУБЕРКУЛЕЗНОГО ПРЕПАРАТА БИОМАЙРИН СИЛГА ҚАРШИ БИОМАЙРИН ПРЕПАРАТИНИНГ ХУСУСИЙ ФАОЛЛИГИНИ ЎРГАНИШ. *ЎЗБЕКИСТОН ФАРМАЦЕВТИК ХАБАРНОМАСИ*, 47.